

**«НАВҚИРОН БУХОРО»
ГУМАНИТАР ТАДҚИҚОТЛАР МАРКАЗИ**

**«КОРРУПЦИЯСИЗ ТАРАҚҚИЁТНИ
ТАЪМИНЛАШ:
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР»**

*мавзусидаги республика илмий-назарий
анжуман материаллари*



**Бухоро-2023
«Дурдона»-нашриёти**

3. O`zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to`g`risida»gi O`RQ-419-sonli.
4. O`zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi «Birlashgan Millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-york, 2003 yil 31 oktyabr) O`zbekiston Respublikasining qo`shilishi to`g`risida»gi qonuni // [elektron manba]. Url: <https://lex.uz/docs/1369505>.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi «O`zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to`g`risida»gi PF-5729-sonli Farmoni.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 29.06.2020 yildagi «O`zbekiston respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risidagi» PF-6013-son.



NASIRIDDIN TUSIYNING MANFAATPARASTLIKKA MUROSASIZLIK FALSAFASI

Abdullayeva Firuza Sharipovna

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda XIII asrda yashab o`tgani qomusiy olim Nasiriddin Tusiyning davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga amal qilishga oid falsafiy qarashlari uning mashhur asari «Axloqi Nosiriy» asarida bayon etilgan tushunchalardan olingan bo`lib, unda shohning adolatli bo`lishi, mehnatga munosib haq to`lash kabi fikrlari qisqacha bayon etilgan.

ФИЛОСОФИЯ НЕТЕРПИМОСТИ К КОРЫСТНЫМ ИНТЕРЕСАМ НАСИРИДИНА ТУСИ

Абдуллаева Фируза Шариповна

*научный сотрудник историко-правового факультета Бухарского
государственного университета*

Аннотация: В данной диссертации кратко изложены философские мысли и взгляды энциклопедиста XIII века Насиридина Туси на принципы справедливости в управлении государством взятые из понятий, высказанных в его известном труде «Ахлоки Носири», в котором правитель должен был быть справедливым и платить достойно за труд.

NASIRIDDIN TUSI'S PHILOSOPHY OF INTEREST INTOLERANCE

Abdullayeva Firuza Sharipovna

Researcher of the Faculty of History and Law of Bukhara State University

Annotation: In this thesis are taken the philosophical views of the 13th-century encyclopedist Nasiriddin Tusi on the principles of justice in the administration of the state from the concepts expressed in his famous work «Ethics of Nasiri», in which the king should be fair, the right to work should be his thoughts were briefly stated.

Davlat Nasiriddin Tusiyning fikricha odamlarning zaruriy va shu bilan bir paytda o`zaro ixtiyoriy birlashmasidir. Mutafakkir insonlar o`rtasidagi munosabatlarning barchasi ko`p qirrali va murakkab bo`lishi, shuningdek, davlatni boshqarish, jamiyatning huquqiy asosda faoliyat yuritishi, ta`lim-tarbiya, odamlarda bahamjihat faoliyat yuritishi uchun zarur bo`lgan yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bilan bog`liq qiyinchiliklarni to`liq anglagan. U o`z asarlarida ma`lum darajada ijtimoiy-huquqiy muammolarni ko`rib chiqishga, ularni hal etishning mumkin bo`lgan yo`llarini taklif qilishga harakat qiladi. Nasiriddin.Tusiy jamiyat-davlat hayotini tahlil qilishda odamlarning tengligi tabiiy emasligini tan olish va bayon qilishdan kelib chiqadi. Uning ta`kidlashicha, odamlar tug`ilishdanoq aqliy, jismoniy kamoloti, muayyan faoliyat turlariga, xususan, san`at, hunarmandchilik, qishloq xo`jaligi va boshqa kasblarni egallashda o`z qobiliyatlari bilan farqlanadilar. Alloma bu normani jamiyatning yagona ijtimoiy organizm sifatida faoliyat yuritishining tabiiy va zaruriy sharti deb hisoblagan, chunki, agar har bir kishi o`z mayliga, o`z qobiliyatiga ko`ra faqat hunarmand yoki dehqonga, yoki faqat olimga yoki jangchiga aylanishi mumkin edi. Unda bu jamiyat fuqarolarining zarur ko`p sonli ehtiyojlarini jumladan, ularni himoya qilish, jamiyatga rahbarlik qilish va shunga mos ravishda ularning mavjudligi va birgalikda yashashini ta`minlay olmaydi. Nasiriddin Tusiy har qanday jamoaning asosini jismoniy va psixologik rivojlanish, kasbiy yo`nalishi va ko`nikmalari bilan bir-biridan farq qiluvchi odamlar tshkil etadi, deb ta`kidlaydi. Shu bilan birga faylasuf shahar-davlat aholisini to`rt toifaga ajratadi. Birinchi toifaga u «qalam ahlini» kiritar ekan, bunga asosan – din ullamolari, olimlar, tabiblar, matematiklar, huquqshunoslar, astronomlar taalluqli bo`lishgan. «iymon va davlatning barqarorligi» shularga bog`liq bo`lgan;

Ikkinchi toifa - «qilich odamlari», (ya`ni davlat chegarasini qo`riqlovchilar, jamiyatdagi tartib uchun javobgar bo`lganlar, hukmdorning ko`rsatmalarini bajaruvchilar hamda e`tiqod uchun kurashuvchilar)dan tashkil topgan;

uchinchi toifa vakillari - «ishbilarmonlar», ya`ni. bularning faoliyatisiz boshqalarning farovonligini ta`minlab bo`lmaydigan savdogarlar, hunarmandlar, soliqchilardan iborat bo`lgan kasb egalari kirgan;

to`rtinchisiga «xo`jayinlar» deb ataydiganlar, ya`ni qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish va ishlab chiqarish bilan shug`ullanadigan barcha dehqonlar - «ularsiz hech kimning yashashi davom etmaydigan odamlar» kiradi, chunki qolgan uch toifadagi fuqarolar aynan manashu toifa egalarining mehnatlari bilan oziqlanadi [1.238].

Nasiriddin.Tus «Davlat-jamiyatning ravnaqi, gullab-yashnashi, madaniyatning yanada yuksalishi, davlatdagi insonlarning fazilati va baxtiyorligi ushbu to`rtta toifa o`rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda deb bilgan. qolaversa «, mana shu toifa vakillari birgalikda, o`zaro hamjihatlikda harakat qilishlari muhim» bo`lib, ular o`rtasidagi munosabatlarni buzish bu toifalarning hech biri uchun foyda keltirmaydi, deb ta`kidlaydi»[1.279-280]..

Mutafakkir har qanday jamiyatda, ayniqsa, mulkiy va ijtimoiy tengsizlik mavjud bo`lgan jamiyatda ham alohida fuqarolar o`rtasida ham, yuqori toifadagi fuqarolar o`rtasida ham ma`lum bir norozilik va hatto muqarrar ravishda ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinligini yaxshi tushungan. O`rnatilgan ayrim mulkiy-huquqiy munosabatlarning buzilishi butun jamiyat faoliyati va hayotiga jiddiy ta`sir ko`rsatishiga chuqur ishonch hosil qilgan Nasiriddin.Tusiy jamiyatdagi har qanday nizolarni, har qanday kelishmovchiliklarni keskin qoralaydi. Faylasuf odamlarga murojaat qilar ekan, ularni bir-birlariga o`z qarindoshlari va do`stlaridek munosabatda bo`lishga chaqirdi. Alloma shoh o`z fuqarolariga o`z farzandlari kabi mehr-muhabbat bilan munosabatda bo`lmog`i, shunga ko`ra, xalq ham shohga o`z otasi kabi mehr bilan munosabatda bo`lishi, oddiy insonlar o`rtasidagi munosabatlar ham birodarlik xarakterida bo`lishi keraklini uqtiradi. Albatta, Nasiriddin Tusiy bunday munosabatlar ideal davlatda uchrashi mumkinligini yaxshi bilsada, shunga qaramay, u hali insonlarning e`tiborini yuqri axloqiy me`yorlarga rioya qilish zarurligiga e`tibor qaratishni o`z buechi deb bildi. Nasiriddin. Tusiy davlatning ikki xil shakli mavjudligini e`tirof etib, bularga «fazilatli davlatlar» va «fazilatsiz davlatlar»ni kiradi.

Faylasufning ta`limotida, «fazilatli shahar» aholisi yaxshilik va o`zaro hamjihatlikda bo`lgan, hamma tomonidan ma`qullangan va qabul qilingan qonun tamoyillariga amal qilinadigan davlatdir. Bunday davlat, Nasiriddin. Tusiyning fikricha, «odamlarning maxsus birlashmasi, ularning birgalikdagi sa`y-harakatlari foydali ishlarni amalga oshirishga, jamiyatda qonunsizlik, vahshiylikni yo`q qilishga qaratilmog`i muhimdir. Bu odamlar orasida barcha ishda va qarashlapda umumiylik bo`ladi. Bu shahar aholisi tomonidan qilingan ishlar dono, puxta o`ylangan qonunlar asosida amalga oshirilgan samimiy munosabatlardan iborat bo`lib, bu yerda har bir insonning mavqei va manfaatlari hisobga olinadi.

«Fazilatsiz» shahar-davlatlarga kelsak, Nasiriddin.Tusiy bu shahar-davlatlarning quyidagi 3 ta turini ajratadi: imonsizsizlar davlati, adashganlar davlati, johil davlat. Nasiriddin Tusiy xalq manfaatiga qaratilgan siyosatni «fazilatli» siyosat deb ataydi, bu siyosatning maqsadi «xalq hayotini baxtli qilish, odamlarda adolat tuyg`usini singdirish, aholiga do`stona munosabatda bo`lish, shaharlarda odamlar manfaati uchun ezgu ishlar qilishdir [1.275].

Nasiriddin Tusiy davlat siyosatida adolat tamoyilini e`lon qilish uchun, u eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar sohasida adolat tamoyiliga rioya qilish, odamlar sarflagan mehnatiga, qobiliyatiga, faoliyatiga munosib haq olishi kerakligini taklif etadi. «Mehnat va unga haq to`lash o`rtasida adolat tiklanmaguncha, - deb yozadi u, «mehnatkashlar va amaldorlar o`rtasidagi normal munosabatlarni o`rnatib bo`lmaydi». Mutafakkir jamiyatdagi har qanday, hatto noloyiq yo`llar bilan ham boylikka erishgan odamlarni keskin qoraladi. Shu munosabat bilan u shunday deb yozgan edi: «o`z mehnati bilan pul topmaydiganlar yovuz odamlar, afsungarlar, tovlamachilar, poraxo`rlardir, bunaqa insonlar faqat mansab olish uchun sovg`a qiladigan yomon firibgarlardirlar»[1.279]. Axloqiy pokiza odamlar biladilarki, yirik mulkdorlar poraxo`rlik, tovarlarni yashirin yo`llar bilan sotish, uyatsiz ishlar, yomon ishlarni maqtash, zo`ravonlik qilish, birovning mulkini o`zlashtirib olish, pora berish va shu kabi nopok yo`llar bilan o`z boyliklariga erishadi.

Demak, xulosa o`rniga shuni aytish mumkinki, Nasiriddin Tusiyning yuqorida bayon etilgan falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari shuni ko`rsatadiki, u, albatta, nafaqat o`z davrining, balki butun o`rta asrning yetuk mutafakkirlaridan biri bo`lgan.

Adabiyotlar:

1. Xacə Nəsirəddin Tusi. Rəhim Sultanovun farscadan tərcüməsi. Əxlaqi-Nasiri. Bakı, «Lider nəşriyyat», 2005.



KORRUPSIYA JAMIYATDAGI YOMON ILLATLARDAN BIRI

Abdumo`minova Madinabonu Talidjon qizi

O`zDJTU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Marzkur tesizda davlat organlari va tashkilotlarda tashkil etilayotgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat «komplaens nazorat» tuzilmalarini faoliyatini to`gri va samarali joriy etish maqsadida amalga oshirilayotgan say-harakatlar va «komplaens nazorat» qanday bo`lishi kerakligi to`g`risida fikr-mulohazalar tahlil qilinadi.